



## SHAXSGA DOIR MALUMOTLARNI HIMOYA QILISH.

### O'ZBEKISTON QONUNCHILIGI

Zokirova Hilola

TDYU BIZNES fakulteti 1-kurs

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17568167>

#### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-noyabr 2025 yil  
Ma'qullandi: 3-noyabr 2025 yil  
Nashr qilindi: 10-noyabr 2025 yil

#### KEY WORDS

#### ABSTRACT

*Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish tizimi huquqiy insitutsional va texnik jihatdan o'rganilgan. Tadqiqot 2019-yilda qabul qilingan „Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida“ gi Qonun hamda unga oid me'yoriy hujjatlar asosida olib borilgan. Shuningdek, Yevropa Itifoqining ma'lumotlarini himoya qilish uning reglamenti (GDPR) va boshqa xorijiy davlatlar tajribasi bilan solishtiruv amalga oshirilgan. Maqolada shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning dolzarbligi, subyekt, va operatorning huquq va majburiyatlari, hamda amaliy muamolar tahlil qilinadi.*

#### KIRISH

Raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan hozirgi davrda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish masalasi global miqiyosda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Internet, mobil ilovalar, electron hukumat tizimlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali fuqorolarning shaxsiy ma'lumotlari doimiy ravishda yig'ilmoqda, saqlanmoqda va qayta ishlanmoqda. Bu jarayon insonning shaxsiy hayoti daxlsizligi va ma'lumot xavfsizligi kafolatlarini taminlash zaruriyatini kuchaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi ushbu tendensiyani inobatga olib 2019-yil 2- iyulda „Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida“ gi Qonuni qabul qildi. Mazkur hujjat mamlakatda shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish jarayonini huquqiy asosda tartibga solidi. Qonun davlat tashkilotlari balki xususiy sektorlar uchun ham majburiy normalarni belgilab beradi.

Shunga qaramasdan amaliyotda shaxsiy malumotlarni noqonuniy oshkor qilish, xorijiy serverlarda saqlash yoki roziligisiz qayta ishlash holatlari uchramoqda. Bu esa raqamli huquqlar sohasidagi huquqiy ongni oshirish, insitutsional mexanizmlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

#### TADQIQOT USULLARI

Ushbu tadqiqotda quyidagi ilmiy yondashuv va metodlar qo'llanildi;

HUQUQIY TAHLIL USULI- O'zbekiston Respublikasining „Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida“ gi Qonuni va Qozog'iston Respublikasining „Ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida“ gi Qonun bilan solishtirildi.

TAQQOSLASH USULI -O'zbekiston qonunchiligi Yevropa Itifoqining GDPR reglamenti, Rossiyaning „Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida“gi qonun va Qozog'iston Respublikasining „Ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida“ gi qonun bilan solishtirildi.

SISTEMALI YONDASHUV-huquqiy,tashkiliy va texnik jihatlar birgalikda o'rganiladi.

#### TADQIQOT NATIJALARI

Tahlil natijalariga ko'ra ,O'zbekistonda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish tizimi quydagi yo'nalishlarda rivojlanmoqda.

#### HUQUQIY ASOSNING SHAKLLANISHI

2019-yilda qabul qilingan qonun ushbu sohadagi birinchi kompleks hujjat bo'lib shaxsga doir ma'lumotlar „aniqlangan va aniqlanadigan jismoniy shaxsga oid axborot“ sifatida tariflanadi. Qonun 2021-yilda yangi tahrirda to'ldirilib, „ma'lumotlarni lakolizatsiya qilish“ talabi joriy etildi. Unga ko'ra, O'zbekiston fuqorolarining shaxsiy ma'lumotlari mamlakat hududidagi serverlarda saqlanishi shart.

#### SUBYEKTNING HUQUQLARI

Fuqorolar o' shaxsiy ma'lumotlari ustidan nazorat o'rnatish huquqiga ega. Ular ma'lumotlarning o'zgartirilishini, o'chirilishini yoki qayta ishlov berilishini to'xtatishni talab qilishlari mumkin. Shuningdek, ma'lumotni roziliksiz tarqatish uchun javobgarlik belgilangan.

#### OPERATOR VA MULKDORNING MAJBURIYATLARI

Ma'lumot operatorlari shaxsiy axborotni faqat subyektning roziligi bilan yig'ishlari, saqlashlari va qayta ishlashlari mumkin. Ular texnik va tashkiliy himoya choralari (shifrlash, autentifikatsiya, kirish nazorati )ni taminlashlari shart .

#### DAVLAT NAZORATI MEXANIZMLARI

„Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida“gi Qonunning ijrosini ta'minlash maqsadida Davlat personallashtirish markazi tashkil etilgan. Ushbu organ ma'lumotlar bazasining yagona reyestrini yuritadi, operatorlarni ro'yxatga oladi va qonun buzilish holatlarini aniqlaydi.

#### MUHOKAMA

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, qonunchilik bazasi mavjud bo'lishuga qaramay, tizimning samaradorligi ko'p jihatdan tashkilotlarning texnik tayyorgarligi va fuqorolarning huquqiy savodhonligiga bog'liq. Ko'plab tashkilotlarda axborot xavfsizligi siyosati mavjud emas yoki formal ravishda yuritiladi. Natijada ma'lumotlarning chiqishi holati ro'y bermoqda .

Xalqaro tajriba bu borada yo'nalishlarni belgilab beradi. Masalan, GDPRda „ma'lumotlarni unuttirish huquqi“ , „ma'lumot partavligi“ va „ rozilikni boshqarish“ mexanizmlari aniq belgilangan. O'zbekiston qonunchiligida bu normalar qisman mavjud, lekin ularni to'liq huquqiy mexanizmlar bilan mustaxkamlash kerak.

Shuningdek, O'zbekiston raqamli infratuzilmasida ma'lumot xavfsizligi bo'yicha milliy standart (O'Z DSt ISO/IEC 27001)ni joriy etish va xususiy sektorni sertifikatlashtirish tizimini yaratish zarur .

#### XULOSA

Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish zamonaviy huquqiy tizimning ajralmas qismi bo'lib, inson huquqlarining yangi avlodini ifodalaydi. O'zbekiston ushbu sohada sezilarli yutuqlarga erishdi

Qonunchilik bazasi yaratildi

Nazorat organi faoliyat yuritmoqda

Operatorlar reyesteri shakllandi.

Biroq tizimni yanada mukammal qilish uchun quyidagi takliflar muhim ahamiyatga ega.

Qonunchilikni xalqaro standartlarga, xususan GDPRga muvofiqlashtirish.

Axborot xavfsizligi standartlarini amaliyotda qo'llash.

Fuqorolar o'rtasida raqamli madaniyatni oshirish.

Davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish.

Ma'lumotlar bilan ishlashda shaffoflik va javobgarlikni o'shish.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni „Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida“ (O'RQ-547,02.07.2019).-Lex.uz.
2. Azizov Partners (2024). Requirements for Protection of Personal Data in Uzbekistan.
3. The library of Congress (2021). New Requirements for Uzbek Citizens' Personal Data Localization Enter Into Force.- loc.gov.
4. Caseguard (2023). UZBEKISTAN; Reinforcing the Privacy Rights of Citizens.
5. GDPR (EU) 2016/679
6. Legal 500 (2024). Personal Data Compliance
7. O'Z DSt ISO/IEC 27001;2019
8. Toshmatova A. 99(202200) Axborot xavfsizligi va huquqiy tartibga solish. TDYU ilmiy jurnali.